



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No8(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 234 sahifa,
12-avgust, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

The Role of English Collocations, Idiomatic Expressions, and Phraseological Units in Developing Communicative Competence in Higher Education	10
<i>Alimov Jamshid Ravshanovich</i>	
Milliy xoslangan lisoniy birliklarni teglash tamoyillari	16
<i>Yorkulov Zafarjon Bakirovich</i>	
Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunishning shaxs kognitiv rivojlanishiga ta'sirining psixologik xususiyatlari	20
<i>Vaydulla Madinabonu Muxtasam qizi</i>	
O'qituvchilar darslarni qanday qiziqarli tashkil etishlari mumkin?	26
<i>Dilnura Rustamovna Xamrayeva</i>	
Tarbiya texnologiyasi – talabalarda ilmiy va sinergetik dunyoqarashni shakllantirish omili sifatida	33
<i>Mamadaliyev Kamolidin Rahmatullayevich</i>	
Maktab direktor maslahatchilarida strategik boshqaruv tafakkurini rivojlantirishning psixologik omillari	40
<i>Rahmatova Nasiba Sobirovna</i>	
Umumta'lim maktablarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini sinfdan tashqari faoliyat orqali takomillashtirishning pedagogik-metodik tizimi	46
<i>Urinbayeva Dilfuza Abdumannobovna</i>	
Integrativ ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish	50
<i>Xoldavlatova Gavhar Normaxmatovna</i>	
Klaster asosida TVET tizimida pedagogik innovatsiyalar	55
<i>Sobir Azizov</i>	
Muammoli ta'lim texnologiyasi orqali talabalarining kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish: "muammo" divergent–konvergent o'quv sikli	57
<i>Djumabayev G'ulomjon Xalillayevich, Yusupov Muxtorbek Roximovich</i>	
Oliy ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya darslarida regbi elementlarini o'rgatishning tashkiliy-metodik asoslar	62
<i>E. E. Jumayev</i>	
Autentik materiallar asosida bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining til ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasining eksperimental samaradorligi	65
<i>Jumayeva Gulxan Amrullayevna</i>	
Aleksandr Nil pedagogik ta'limotida shaxs erkinligini rivojlantirish mexanizmlari: ingliz filologiyasi talabalari misolida	71
<i>Atamirzayev Bahrom Bahodir o'g'li</i>	
TPACK modeli asosida ingliz tilida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning adaptiv metodik tizimi	75
<i>Omonova Maftuna Shermatovna</i>	
Multimodal vizual tayanchlar va flashcard asosidagi topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilidagi og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	82
<i>Sevara Alimurodova, Ayubova Said</i>	
Raqamlashtirish jarayonida elektron ta'lim resurslarini yaratishning metodik asoslarini takomillashtirish	88
<i>Nurmaxanov Kayrat Erpayizovich</i>	
Modulli ta'lim texnologiyalari orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishning pedagogik asoslari	95
<i>Poyonova Fazilat Olimovna</i>	
Individual ta'lim sharoitida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash samaradorligini pedagogik tajriba-sinov va matematik-statistik tahlil asosida baholash	100
<i>Gulbaxor Abdullayevna Gaynazarova</i>	



Oliy ta'lim muassasalarida raqamli menejment tizimlarini joriy etish muammolari va ularni bartaraf etishning samarali yo'llari	106
Matnazarov Hurmatbek Egamberganovich	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini boshqarishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	110
Sodiqov Rafikjon Turobjon o'g'li	
Bo'lajak tarbiyachilarning liderlik-boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ...	114
To'xtayeva Dilrabo Nematovna	
Inklyuziv ta'lim: mohiyati, tamoyillari	119
Choriyeva Muxlisa Jumamurodovna	
The Role of Neuromuscular Dentistry in Dental Practice	123
Turayev Alimjan	
Orthodontics' Digital Transformation (Literature Review)	128
Khusanbaeva Jasmin Shavkatovna, Xazratov A. I.	
O'zbekiston SSRda ta'lim islohotlari davrida pedagogika bilim yurtlari faoliyatida o'qituvchilarni tayyorlash jarayonlari va amaliy muammolar	136
Mamatkulova Maxfuza Kozimovna	
Application of Mechanotherapy Techniques in Oral and Craniofacial Surgical Methodologies (Literature Review)	140
Marufova Farangiz Gayratovna	
Theoretical Foundations for Developing Communicative Competence of Future Doctors	147
Nasimova Shahnoza Ziyodullayevna	
Формирование функциональной грамотности и "гибких навыков" (Soft Skills) у учащихся начальных классов в контексте реализации национальной учебной программы Узбекистана	152
Ю. С. Тажиева	
Talabalarda mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirish metodlari	156
Jabborov Toxirjon Maqsudali o'g'li	
Ingliz va qoraqalpoq tillaridagi onim komponentli frazeologizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari	160
Koyshekenova Tatyana Kenesariyevna	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi	164
Qo'shaqov Farrux Furqat o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv faollikni oshirishning pedagogik usullari	169
Xoldarova F. M.	
Ingliz tili darslarida ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasi	172
Madaminova Muzifa Shukurullo qizi	
Sport ta'limi yo'nalishidagi o'quvchilarining generativ sun'iy intellekt kompetensiyasini baholash mezonlari va indikatorlarini takomillashtirish	178
Nematova Rushana Nemat qizi	
Inklyuziv ta'lim sharoitida koxlear implantli bolalarning eshituv-nutqiy faoliyatini pedagogik tashkil etish metodikasi	184
Mirzayeva Umida Inamovna	
Umumiy o'rta ta'lim muassasasida ijtimoiy-madaniy muhitni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati	188
Malikova Dilrabaxon	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy-subyektiv pozitsiyasini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	194
Temirova Shoxsanam Komilovna	
O'zbek tilidagi lingvomadaniy kollokatsiyalarning assotsiativ-semantik xususiyatlari	201
Boymirova Dilshoda Oblayor qizi	
Методы развития компетенций будущих учителей начальной школы в области создания текстов	208
Хаитова Нодира Бафроевна	

Inklyuziv maktabgacha ta'limda bolalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvida madaniy-tarixiy va ekologik yondashuvlar integratsiyasi	216
Mengliyeva Gavhar Ibrohim qizi	
Maktabgacha ta'lim jarayonida induktiv metodlardan foydalanishning xorijiy tajribasi	220
Mirazimova Muxabbat Normatovna	
Virtual muzeylar orqali tarixiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik modeli	225
To'ranazarova Muxlisaxon Davlatjon qizi	
Қорақалпоқ, туркман ва инглиз эртақларида образли нутқнинг миллий моделлари: фразеологизм, ранг ва маиший тимсоллар	230
Жепбарова Саят Курбанмиратовна, Жаумитбаева Перийзат Караматдиновна	



O'ZBEK TILIDAGI LINGVOMADANIY KOLLOKATSIYALARNING ASSOTSIATIV-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Boymirova Dilshoda Oblayor qizi

Koson tumanidagi 44-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek tilidagi lingvomadaniy kollokatsiyalarning assotsiativ-semantik xususiyatlari tadqiq etiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi kollokatsiya tarkibidagi leksik komponentlarning birikma doirasida yuzaga keladigan qo'shimcha semantik, assotsiativ, konnotativ va milliy-madaniy mazmunini aniqlashdan iborat. Tadqiqot materiali sifatida o'zbek tilida faol qo'llanadigan va milliy-madaniy mazmunni ifodalovchi oq, qora, non, duo, ko'ngil, yuz, yo'l, mehmon, uyat, oriyat, baraka kabi birliklar ishtirokidagi kollokatsiyalar tanlandi. Tahlilda semantik komponent, kontekstual, lingvomadaniy va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Kollokatsiyalarning semantik tuzilishi leksik ma'no → kollokatsion ma'no → assotsiativ ma'no → konnotativ ma'no → lingvomadaniy konsept modeli asosida izohlandi. Natijalar oq yo'l, oq ko'ngil, qora kun, non topmoq, duo olmoq, ko'nglini olmoq, yuzini yorug' qilmoq kabi birliklarda komponentlarning lug'aviy ma'nosi kengayib, milliy-madaniy mazmun hosil qilishini ko'rsatdi. Kollokatsiyalar axloqiy-baholovchi, emotsional-psixologik, ijtimoiy-madaniy, maishiy-madaniy, ramziy-obrazli va diniy-ma'naviy guruhlariga ajratildi. Tadqiqot natijalari o'zbek tilidagi lingvomadaniy kollokatsiyalarni kollektiv tajriba, qadriyat va madaniy tasavvurlarni aks ettiruvchi ko'pqatlamli semantik birliklar sifatida tavsiflash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: kollokatsiya, lingvomadaniyat, assotsiativ semantika, konnotatsiya, lingvomadaniy konsept, milliy-madaniy mazmun, o'zbek tili.

Abstract: This article examines the associative-semantic features of linguocultural collocations in the Uzbek language. The study aims to identify the additional semantic, associative, connotative, and culture-specific meanings that emerge through the conventional combination of lexical units. The research material comprises Uzbek collocations containing culturally salient lexical components, including oq "white," qora "black," non "bread," duo "blessing," ko'ngil "inner state, heart," yuz "face," and yo'l "road," as well as units associated with hospitality, honour, social status, and well-being. Semantic component analysis, contextual analysis, linguocultural analysis, and comparative analysis were employed to examine the selected material. The semantic structure of the collocations was interpreted through the following analytical sequence: lexical meaning → collocational meaning → associative meaning → connotative meaning → linguocultural concept. The findings demonstrate that expressions such as oq yo'l, oq ko'ngil, qora kun, non topmoq, duo olmoq, ko'nglini olmoq, and yuzini yorug' qilmoq develop meanings that extend beyond the literal meanings of their individual components. The analyzed collocations were classified into six associative-semantic groups: moral-evaluative, emotional-psychological, socio-cultural, everyday-cultural, symbolic-figurative, and religious-spiritual. The findings indicate that Uzbek linguocultural collocations function as multilayered semantic units through which collective experience, cultural values, social norms, and culturally shared conceptualizations are encoded.

Key words: collocation, linguoculture, associative semantics, connotation, linguocultural concept, national-cultural meaning, Uzbek language.



Аннотация: В статье исследуются ассоциативно-семантические особенности лингвокультурных коллокаций узбекского языка. Основная цель исследования заключается в выявлении дополнительных семантических, ассоциативных, коннотативных и национально-культурных компонентов, формирующихся в процессе устойчивого сочетания лексических единиц. Материалом исследования послужили коллокации узбекского языка, содержащие лингвокультурно значимые компоненты, в частности, оқ “белый”, qora “чёрный”, non “хлеб”, duo “благословение”, ko'ngil “душа, внутреннее состояние”, yuz “лицо”, yo'l “дорога”, а также единицы, связанные с понятиями гостеприимства, чести и благополучия. В работе применены методы компонентного, контекстуального, лингвокультурологического и сопоставительного анализа. Семантическая структура коллокаций рассматривается по модели лексическое значение → коллокационное значение → ассоциативное значение → коннотативное значение → лингвокультурный концепт. Результаты показывают, что в сочетаниях оқ yo'l, оқ ko'ngil, qora kun, non topmoq, duo olmoq, ko'nglini olmoq, yuzini yorug' qilmoq лексические компоненты приобретают дополнительные культурно обусловленные значения. Выделены шесть основных ассоциативно-семантических групп: морально-оценочная, эмоционально-психологическая, социально-культурная, бытово-культурная, символично-образная и религиозно-духовная. Полученные результаты подтверждают, что лингвокультурные коллокации являются многослойными семантическими единицами, отражающими национальный опыт, ценности и культурные представления узбекского народа.

Ключевые слова: коллокация, лингвокультура, ассоциативная семантика, коннотация, лингвокультурный концепт, национально-культурное содержание, узбекский язык.

KIRISH

Kollokatsiya tarkibidagi so'zlarning ma'nosi har doim ham ularning alohida lug'aviy mazmuni bilan to'liq izohlanmaydi. So'zlarning nutqda me'yoriy va takroriy tarzda birikishi natijasida qo'shimcha semantik va assotsiativ bog'lanishlar yuzaga keladi [7]. Masalan, oq yo'l, oq ko'ngil, qora kun, duo olmoq, non topmoq, ko'ngil bermoq kabi o'zbekcha kollokatsiyalarda komponentlarning mustaqil ma'nosi birikmaning umumiy mazmunini to'liq belgilamaydi. Oq yo'l birikmasida oq “rang” ma'nosidan tashqari xayrli safar va yaxshi tilakni, oq ko'ngilda esa poklik va samimiyligni ifodalaydi [2]. Non topmoq birikmasi esa oziq-ovqat ma'nosidan tashqari mehnat, rizq va tirikchilik bilan bog'liq madaniy tasavvurlarni faollashtiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kollokatsiyaning ushbu xususiyati uning assotsiativ-semantik tabiatini belgilaydi. J. R. Firth kollokatsiyani so'zning boshqa birliklar bilan birikish xususiyati orqali izohlasa, J. Sinclair uning real nutqdagi muntazam qo'llanishini korpus lingvistikasi asosida tadqiq etgan.

M. Hoeyning lexical priming nazariyasida esa so'zlarning takroriy kontekstual qo'llanishi natijasida muayyan assotsiativ bog'lanishlar shakllanishi asoslanadi.

R. Moon tadqiqotlarida kollokatsiyalarning madaniy konnotatsiyasi alohida ko'rsatilib, kollokatsion tanlovning muayyan madaniyatga xos tasavvurlar bilan bog'liqligi yoritilgan.

O'zbek tilida non, duo, ko'ngil, yuz, yo'l, mehmon, oq, qora kabi birliklar yuqori lingvomadaniy faollikka ega. Ularning kollokatsion qurshovida lug'aviy ma'nodan tashqari milliy tajriba, qadriyat, ijtimoiy munosabat va baholash mezonlari bilan bog'liq mazmun shakllanadi. Masalan, duo olmoq kollokatsiyasida duo kattalarning roziligi, ezgu tilak va hurmat bilan; yuzini yorug' qilmoq birikmasida yuz esa sha'n, obro' va ijtimoiy baho bilan bog'lanadi. Shu sababli lingvomadaniy kollokatsiyalarning semantik tuzilishida denotativ, kollokatsion, assotsiativ-konnotativ va lingvomadaniy qatlamlarni farqlash mumkin.

O'zbek tilshunosligida so'zlarning birikuvchanligi, frazeologik birliklarning semantik tabiati va milliy xususiyatlari o'rganilgan bo'lsa-da, kollokatsiyalarning assotsiativ-semantik va lingvomadaniy xususiyatlarini birgalikda tahlil qilish masalasi yetarlicha tizimlashtirilmagan. Shu jihatdan o'zbek tilidagi kollokatsiyalarda milliy-madaniy assotsiativ-semantik shakllanishi va ularning umumiy semantik mazmunga ta'sirini aniqlash mazkur tadqiqotning asosiy muammosini tashkil etadi.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek tilidagi lingvomadaniy kollokatsiyalarning assotsiativ-semantik xususiyatlarini aniqlash hamda ularning shakllanishida milliy-madaniy konseptlarning rolini tavsiflashdan iborat. Tadqiqotda kollokatsiyalarning semantik tarkibi, assotsiativ maydoni va konnotativ komponentlari non, duo, ko'ngil, yo'l, yuz, mehmon, oq va qora kabi madaniy jihatdan markaziy birliklar misolida tahlil qilinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot materiali sifatida o'zbek tilida faol qo'llanadigan, tarkibida milliy-madaniy mazmunni ifodalovchi komponentlar mavjud bo'lgan kollokatsiyalar tanlandi. Materiallarni shakllantirishda kollokatsiyaning nutqda takroriy qo'llanishi, komponentlarning semantik jihatdan bog'langanligi, birikmaning o'zbek tiliga xosligi va qo'shimcha assotsiativ-konnotativ ma'no hosil qilishi asosiy mezon sifatida belgilandi [14]. Tahlil uchun,



xususan, oq, qora, non, duo, ko'ngil, yuz, yo'l, mehmon, uyat, oriyat, baraka kabi lingvomadaniy jihatdan faol birliklar ishtirokidagi kollokatsiyalar ajratib olindi [5].

Kollokatsiyalarni aniqlashda ularning oddiy erkin so'z birikmalaridan farqlanishiga alohida e'tibor berildi. Erkin birikmada komponentlarning kombinatsiyasi vaziyatga qarab nisbatan erkin o'zgarishi mumkin bo'lsa, kollokatsiyada so'zlarning birikish imkoniyati til me'yorida shakllangan va takroriy qo'llanish bilan mustahkamlangan bo'ladi [11]. Tadqiqotda kollokatsiyaning ushbu belgisi uning assotsiativ-semantik xususiyatlarini aniqlashning boshlang'ich mezon sifatida qabul qilindi.

Tahlil jarayonida kollokatsiyaning semantik mazmuni uch bosqichda ko'rib chiqildi.

Birinchi bosqichda komponentlarning mustaqil lug'aviy ma'nosi aniqlanadi.

Ikkinchi bosqichda ushbu komponentlarning birikma tarkibida hosil qiladigan kollokatsion ma'nosi belgilanadi.

Uchinchi bosqichda kollokatsiya bilan bog'liq assotsiativ, konnotativ va milliy-madaniy ma'no aniqlanadi [9].


Shu asosda, masalan, oq → rang → poklik-ezgulik → xayrli tilak, non → oziq-ovqat → rizq → mehnat va baraka, yuz → insonning yuzi → obro'-sha'n → ijtimoiy baho, ko'ngil → ichki holat → mehr/istak → ma'naviy-emotsional munosabat kabi semantik-assotsiativ zanjirlar ajratiladi.

Lingvomadaniy komponentni aniqlashda kollokatsiyaning o'zbek tilida mavjud bo'lgan madaniy bilimlar bilan bog'lanish darajasi hisobga olindi. Bunda birlikning urf-odat, qadriyat, ijtimoiy munosabat, axloqiy me'yor, diniy tasavvur yoki xalqning kundalik tajribasi bilan aloqasi tahlil qilindi. Masalan, duo olmoq kollokatsiyasida duo komponentining asosiy lug'aviy mazmunidan tashqari kattalarning roziligi, ezgu tilak va hurmat bilan bog'liq assotsiativ qatlam mavjud. Non topmoq birikmasida esa non komponenti oziq-ovqat nomidan tashqari rizq, tirikchilik va mehnat tushunchalarini faollashtiradi.

Assotsiativ-semantik tahlilda komponentlarning kollokatsiya tarkibida qanday qo'shimcha tasavvurlarni yuzaga keltirishi aniqlanadi [15]. Bunda assotsiatsiya bevosita lug'aviy ma'nodan kelib chiqadigan semantik bog'lanish bilan cheklanmaydi [3]. U muayyan birlikning o'zbek tilida uzoq muddat davomida takroriy qo'llanishi, madaniy tajribada mustahkamlanishi va ma'lum vaziyatlar bilan bog'lanishi natijasida shakllangan mazmunni ham qamrab oladi. Shu sababli tadqiqotda assotsiativ ma'no kollokatsiyaning kontekstual va madaniy tajriba bilan bog'langan qo'shimcha semantik qatlami sifatida talqin qilindi.

Tadqiqotda semantik komponent tahlili kollokatsiya tarkibidagi ma'no elementlarini ajratish uchun, kontekstual tahlil kollokatsiyalarning real nutqdagi mazmunini aniqlash uchun, lingvomadaniy tahlil milliy-madaniy komponentlarni belgilash uchun va qiyosiy tahlil o'zbek tilidagi kollokatsiyalarning umumiy semantik modellari o'rtasidagi farqlarni aniqlash uchun qo'llanildi [12]. Zarur hollarda kollokatsiyalarning qo'llanish chastotasi va tipik kontekstlarini aniqlashda korpus materiallaridan foydalanish ko'zda tutiladi [6].

Kollokatsiyalarni guruhlashda ularning yetakchi lingvomadaniy komponenti asos qilib olindi. Natijada materiallar 1) axloqiy-baholovchi, 2) emotsional-psixologik, 3) ijtimoiy-madaniy, 4) maishiy-madaniy, 5) diniy-ma'naviy, 6) ramziy-obrazli assotsiativ-semantik guruhlariga ajratildi. Bunday tasnif kollokatsiyaning grammatik shaklidan ko'ra uning madaniy-semantik yuklamasini markazga qo'yadi.



1-rasm: Lingvomadaniy kollokatsiyaning assotsiativ-semantik tahlil modeli

Mazkur model asosida kollokatsiyaning shakliy tuzilishi bilan uning madaniy mazmuni o'rtasidagi munosabat aniqlanadi. Shu bilan birga, barcha kollokatsiyalarda lingvomadaniy komponent bir xil darajada namoyon bo'lmisligi nazarda tutiladi. Ayrim birliklarda madaniy komponent kuchli va bevosita bo'lsa, boshqalarida u faqat kontekst yoki assotsiativ bog'lanish orqali yuzaga chiqadi [1].



Shunday qilib, tadqiqot metodologiyasi kollokatsiyaning uch jihatini bir vaqtning o'zida - leksik birikuvchanlik, assotsiativ-semantik mazmun va lingvomadaniy markirlanganlikni tahlil qilishga yo'naltirildi. Ushbu metodologik asos keyingi bosqichda o'zbek tilidagi konkret kollokatsiyalarni guruhlar bo'yicha tahlil qilish va ularning milliy-madaniy mazmunini aniqlash imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijalari o'zbek tilidagi lingvomadaniy kollokatsiyalarda leksik komponentning ma'nosi kollokatsiya tarkibiga kirgach, uning semantik doirasi kengayishini ko'rsatdi. Bunda kollokatsiyaning umumiy mazmuni komponentlarning lug'aviy ma'nolari yig'indisidan tashqari, muayyan assotsiativ va madaniy mazmunni ham o'z ichiga oladi [10]. Ayniqsa, o'zbek tilida milliy-madaniy jihatdan faol bo'lgan oq, qora, non, duo, ko'ngil, yuz, yo'l, mehmon, baraka kabi birliklarning boshqa so'zlar bilan birikishida ushbu xususiyat yaqqol namoyon bo'ladi.


Tadqiqot materiallari asosida lingvomadaniy kollokatsiyalarning semantik tuzilishida quyidagi ketma-ketlik kuzatildi:

leksik ma'no → kollokatsion ma'no → assotsiativ ma'no → konnotativ ma'no → lingvomadaniy konsept.

Mazkur model kollokatsiyaning shakllanishini faqat grammatik yoki sintagmatik bog'lanish bilan izohlash yetarli emasligini ko'rsatadi. Kollokatsiya tarkibidagi ayrim komponentlar o'zining mustaqil lug'aviy ma'nosidan tashqari, milliy-madaniy tajribada shakllangan qo'shimcha semantik yuklamani ham olib kiradi [4].

Oq va qora komponentlari ishtirokidagi kollokatsiyalar o'zbek tilidagi rang bildiruvchi birliklarning madaniy-semantik imkoniyatlari kengligini ko'rsatadi. Masalan, oq yo'l birikmasida oq komponenti bevosita rang ma'nosini ifodalashdan uzoqlashib, "ezgulik", "xayrli yo'l", "omad" va "yaxshi tilak" kabi assotsiativ ma'nolarni yuzaga keltiradi. Bunda yo'l komponenti ham faqat harakat yo'nalishini emas, insonning safarini va uning kelgusidagi holatini bildiruvchi ramziy mazmunni oladi.

Oq ko'ngil kollokatsiyasida esa oq komponentining semantik kengayishi insonning ichki dunyosi bilan bog'lanadi. Birikma "samimiy", "pok niyatli", "yaxshi qalbli" kabi baholovchi ma'nolarni shakllantiradi [13]. Demak, rang komponentining semantik xususiyati fizik belgidan axloqiy-psixologik baholashga ko'chadi. Tahlil qilingan kollokatsiyalarning assotsiativ-semantik guruhlar bo'yicha taqsimoti turli lingvomadaniy qatlamlarning nisbiy faolligini ko'rsatadi (2-rasm).



2-rasm: O'zbek tilidagi lingvomadaniy kollokatsiyalarning assotsiativ-semantik guruhlar bo'yicha taqsimlanishi

Bunga qarama-qarshi ravishda, qora kun kollokatsiyasida qora komponenti salbiy baholashni yuzaga keltiradi. Birikma og'ir hayotiy vaziyat, tashvish, musibat yoki sinov bilan assotsiatsiyalanadi [8]. Shunday qilib, oq va qora komponentlarining kollokatsion qurshovi o'zbek tilida "ijobiy-salbiy", "ezgulik-musibat", "umid-tashvish" kabi qarama-qarshi assotsiativ-semantik munosabatlarni shakllantiradi (1-jadval).

1-jadval: Rang komponentli lingvomadaniy kollokatsiyalarning assotsiativ-semantik xususiyatlari

Kollokatsiya	Kollokatsion ma'no	Assotsiativ qatlam	Lingvomadaniy konsept
oq yo'l	xayrli safar	omad, ezgulik, yaxshi tilak	ezgu tilak
oq ko'ngil	samimiy, pok inson	poklik, halollik	axloqiy poklik
qora kun	og'ir davr	tashvish, musibat	hayot sinovi
qora niyat	yomon maqsad	salbiylik, xavf	axloqiy baho



Non komponenti o'zbek tilidagi eng kuchli lingvomadaniy birliklardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Uning kollokatsion qurshovida predmet nomi sifatidagi asosiy ma'no bilan birga rizq, tirikchilik, mehnat, baraka va farovonlik bilan bog'liq assotsiativ qatlam shakllanadi.

Masalan, non topmoq kollokatsiyasida topmoq fe'li oddiy "biror narsani izlab topish" ma'nosida emas, balki mehnat qilish va tirikchilik vositasini yaratish mazmunida qo'llanadi. Natijada non → rizq → mehnat → tirikchilik assotsiativ zanjiri yuzaga keladi.

Nonini topmoq, nonini halol topmoq, non-tuzini unutmoq kabi birliklarda esa non komponenti oziq-ovqat tushunchasidan yuqoriroq darajadagi ijtimoiy va axloqiy mazmunni ifodalaydi. Ayniqsa, non-tuz birikmasida "non" va "tuz"ning birgalikda qo'llanishi oddiy oziq-ovqat nomlanishi emas, balki insonlar o'rtasidagi minnatdorlik, yaqinlik va o'zaro hurmat munosabatlari ifodalovchi madaniy modelni yuzaga keltiradi.

Bu holat o'zbek tilidagi ayrim kollokatsiyalarda moddiy predmet nomining ma'naviy va ijtimoiy qadriyatga aylanishini ko'rsatadi (2-jadval).

2-jadval: "Non" komponentli lingvomadaniy kollokatsiyalarning assotsiativ-semantik xususiyatlari

Kollokatsiya	Kollokatsion ma'no	Assotsiativ qatlam	Lingvomadaniy konsept
non topmoq	tirikchilik qilmoq	mehnat, rizq	halol mehnat
nonini topmoq	o'z tirikchiligini ta'minlamoq	mehnat, mustaqillik	tirikchilik
halol non	halol mehnat orqali topilgan rizq	poklik, mehnat	halollik
non-tuzini unutmoq	yaxshilikni unutmoq	minnatdorlik, sadoqat	insoniy qarzdorlik
non-tuzini yemoq	birga yashash-munosabatda bo'lish	yaqinlik, hamjihatlik	ijtimoiy birdamlik

Duo olmoq, duo qilmoq, duosini olmoq kabi kollokatsiyalar tarkibida duo komponenti diniy mazmun bilan cheklanmaydi. Ushbu birliklar o'zbek madaniyatida kattalarning roziligi, ezgu tilak, hurmat, baraka va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tushunchalari bilan bog'lanadi.

Xususan, duo olmoq kollokatsiyasida olmoq fe'lining predmetni qabul qilish ma'nosi abstrakt mazmunga ko'chadi. Natijada "duoni qabul qilish" bilan birga, katta yoshli yoki hurmatli insonning roziligiga erishish haqidagi madaniy tasavvur shakllanadi. Shu asosda quyidagi assotsiativ modelni ajratish mumkin:

duo → ezgu tilak → rozilik → baraka → ijtimoiy-madaniy qo'llab-quvvatlash.

Mazkur model kollokatsiyaning semantik mazmuni o'zbek jamiyatidagi avlodlararo munosabatlar va hurmat me'yorlari bilan bog'langanligini ko'rsatadi.

"Ko'ngil" komponentining emotsional-assotsiativ xususiyatlari

Ko'ngil komponenti o'zbek tilidagi lingvomadaniy kollokatsiyalarda yuqori darajadagi semantik faollik bilan ajralib turadi. Ko'ngil bermoq, ko'ngli qolmoq, ko'nglini olmoq, ko'ngli to'lmoq, ko'ngliga tegmoq kabi birikmalarda ko'ngil insonning anatomik a'zosi emas, balki uning ichki ruhiy-emotsional holatini ifodalovchi konseptual birlik sifatida namoyon bo'ladi.

Masalan, ko'nglini olmoq kollokatsiyasida olmoq fe'li predmetni egallash ma'nosini yo'qotib, insonning ranjishini bartaraf etish, uning roziligiga erishish va munosabatni tiklash mazmunini oladi. Ko'ngil bermoq esa mehr, moyillik va hissiy yaqinlik bilan bog'lanadi.

Shu asosda ko'ngil komponentining asosiy assotsiativ maydoni quyidagicha ifodalanadi:

ko'ngil → ichki dunyo → hissiyot → munosabat → mehr–ranjish–rozilik.

Bu natija o'zbek tilida psixologik va emotsional holatlarning ko'pincha "ichki makon" modeli orqali konseptualashtirilishini ko'rsatadi.

"Yuz" komponentining ijtimoiy-baholovchi mazmuni

Yuz komponenti ishtirokidagi kollokatsiyalarda semantik ko'chish, ayniqsa, ijtimoiy baholash bilan bog'liq. Yuzini yorug' qilmoq, yuzi yorug' bo'lmoq, yuzini yerga qaratmoq, yuzini qora qilmoq kabi birliklarda yuz insonning tashqi qiyofasini emas, uning obro'si, sha'ni, ijtimoiy mavqeyi va oilaviy nufuzini ifodalaydi.

Yuzini yorug' qilmoq birikmasida "yorug'lik" jismoniy holat emas, ijobiy ijtimoiy bahoning ramziy ifodasidir. Aksincha, yuzini yerga qaratmoq yoki yuzini qora qilmoq kollokatsiyalarida salbiy baho, uyat va obro'ning tushishi bilan bog'liq assotsiativlar faollashadi.

Natijada yuz komponenti asosida quyidagi konseptual qarama-qarshilik shakllanadi:

- yorug' yuz → obro' → faxr → ijobiy baho,
- qarama-qarshi ravishda:
- qora–yerga qaragan yuz → uyat → obro'sizlik → salbiy baho.



Bu model o'zbek tilidagi ijtimoiy baholashning shaxsning "yuzi" orqali konseptualashtirilishini ko'rsatadi. Tahsil qilingan birliklarni yetakchi assotsiativ va lingvomadaniy komponentlariga ko'ra bir necha guruhga ajratish mumkin. Bunda ayrim kollokatsiyalar bir vaqtning o'zida ikki yoki undan ortiq guruhga mansub bo'lishi mumkin (3-jadval).

3-jadval: O'zbek tilidagi lingvomadaniy kollokatsiyalarning assotsiativ-semantik guruhlari

No	Assotsiativ-semantik guruh	Yetakchi komponentlar	Kollokatsiyalar	Asosiy assotsiativ mazmun
1	Axloqiy-baholovchi	oq, qora, yuz	oq ko'ngil, qora niyat, yuzini yorug' qilmoq	poklik, ezgulik, yomonlik, uyat, obro'
2	Emotsional-psixologik	ko'ngil	ko'ngil bermoq, ko'nglini olmoq, ko'ngli qolmoq	mehr, moyillik, ranjish, rozilik
3	Ijtimoiy-madaniy	yuz, duo	yuzini yorug' qilmoq, duo olmoq	hurmat, obro', rozilik, ijtimoiy baho
4	Maishiy-madaniy	non	non topmoq, nonini topmoq, non-tuzini unutmoq	rizq, mehnat, tirikchilik, minnatdorlik
5	Ramziy-obrazli	oq, qora, yo'l	oq yo'l, qora kun, qora yo'l	omad, ezgulik, musibat, xavf
6	Diniy-ma'naviy	duo, baraka	duo olmoq, duo qilmoq, baraka topmoq	ezgu tilak, rozilik, rizq, farovonlik

Yuqorida keltirilgan guruhlash (3-jadval) kollokatsiyalarning lingvomadaniy mazmuni turli semantik sohalarda namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Xususan, oq va qora komponentlari asosan axloqiy hamda ramziy baholashni, ko'ngil komponenti emotsional-psixologik holatlarni, non komponenti maishiy-madaniy qadriyatlarni, duo va baraka komponentlari esa diniy-ma'naviy mazmunni faollashtiradi. Yuz komponenti, o'z navbatida, shaxsning ijtimoiy obro'si, sha'ni va jamiyatdagi bahosi bilan bog'liq assotsiativ maydonni shakllantiradi. Shu tariqa, kollokatsiyalarning assotsiativ-semantik tasnifi ularning tarkibidagi madaniy kodlarning turli darajada faollashishini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari o'zbek tilidagi lingvomadaniy kollokatsiyalarning semantik mazmuni komponentlarning alohida lug'aviy ma'nolari bilan chegaralanmasligini ko'rsatdi. Kollokatsiya tarkibida leksik ma'no → kollokatsion ma'no → assotsiativ ma'no → konnotativ ma'no → lingvomadaniy konsept ketma-ketligi asosida qo'shimcha semantik qatlamlar shakllanadi. Xususan, oq yo'l, oq ko'ngil, qora kun, non topmoq, duo olmoq, ko'nglini olmoq, yuzini yorug' qilmoq kabi birliklarda rang, predmet yoki tana a'zosi nomi o'zining bevosita ma'nosidan tashqari ezgulik, poklik, rizq, mehnat, rozilik, hurmat, obro' va ijtimoiy baho kabi madaniy mazmunlarni faollashtiradi.

Tahsil natijasida lingvomadaniy kollokatsiyalar axloqiy-baholovchi, emotsional-psixologik, ijtimoiy-madaniy, maishiy-madaniy, ramziy-obrazli va diniy-ma'naviy guruhlariga ajratildi. Oq va qora birliklari ijobiy-salbiy hamda ezgulik-musibat qarama-qarshiligini, ko'ngil emotsional holat va insonlararo munosabatlarni, non rizq, mehnat va minnatdorlikni, duo va baraka esa ezgu tilak, rozilik va farovonlikni konseptualashtirishi aniqlandi. Yuz komponenti esa obro', sha'n, uyat va ijtimoiy baho bilan bog'liq assotsiativ maydonni shakllantiradi. Shu asosda o'zbek tilidagi lingvomadaniy kollokatsiyalarni milliy tajriba va kollektiv madaniy tasavvurlarni aks ettiruvchi ko'pqatlamli assotsiativ-semantik birliklar sifatida tavsiflash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Benson, M., Benson, E., & Ilson, R. (1986). The BBI combinatory dictionary of English: A guide to word combinations. John Benjamins.
2. Firth, J. R. (1957). Papers in linguistics 1934-1951. Oxford University Press.
3. Hamdamov, H. A. (2026). Collocation theory in English and Uzbek from a contrastive and corpus-informed perspective. International Journal of Literature and Languages, 6(3), 101-111. <https://doi.org/10.37547/ijll/Volume06Issue03-21>
4. Hoey, M. (2005). Lexical priming: A new theory of words and language. Routledge.
5. Kövecses, Z. (2010). Metaphor: A practical introduction (2nd ed.). Oxford University Press.
6. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). Metaphors we live by. University of Chicago Press. <https://doi.org/10.7208/chicago/9780226470993.001.0001>
7. Lewis, M. (Ed.). (2000). Teaching collocation: Further developments in the lexical approach. Language Teaching Publications.
8. Moon, R. (1995). Collocations and cultural connotations of common words. Linguistics and Education, 7(4), 379-390. [https://doi.org/10.1016/0898-5898\(95\)90011-X](https://doi.org/10.1016/0898-5898(95)90011-X)



9. Rahmatullayev, Sh. (1978). O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. O'qituvchi.
10. Sharifian, F. (Ed.). (2017). Advances in cultural linguistics. Springer. <https://doi.org/10.1007/978-981-10-4056-6>
11. Shomaqsudov, A. Sh., & Shorahmedov, Sh. Sh. (1983). O'zbek tili frazeologiyasi. O'qituvchi.
12. Sinclair, J. (1991). Corpus, concordance, collocation. Oxford University Press.
13. Urinova, N. U. (2023). Classification of collocations of English and Uzbek languages. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 3(5), 111-114. <https://doi.org/10.55640/eijmrms-03-05-21>
14. Wierzbicka, A. (1992). Semantics, culture, and cognition: Universal human concepts in culture-specific configurations. Oxford University Press. <https://doi.org/10.1093/oso/9780195073256.001.0001>
15. Wierzbicka, A. (1997). Understanding cultures through their key words: English, Russian, Polish, German, and Japanese. Oxford University Press. <https://doi.org/10.1093/oso/9780195088359.001.0001>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.